



BOSHLANG'ICH TA'LIMDATA'LIM VA TARBIYANING UYG'UNLIGI

Toshkent Amaliy fanlar universiteti, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi
kafedrası katta o'qituvchisi

Abdiyeva Qo'ysintosh Azadovna

2-kurs talabasi

Sa'dullayeva Sevinch

Annotatsiya: Ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti va inson kapetalining rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxs sifatida shakillanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur bosqichda o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularni ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan tarbiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonining uyg'un holda olib borilishi o'quvchilarning har tomonloma rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligini, pedagogik metodlarning o'rni hamda o'qituvchining tarbiyaviy faolyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tarbiya, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, o'quvchi, o'qituvchi.

Abstrac: Primary education plays an imortant role in the formation of a student's personality. Atthis stage it is important not only to provide knowledge but aslo to develop moral qualities. The harmony between education and upbringing ensuress the relationship between education and uppringing in primary education and the importance of pedogogical methods.

keywords: primary education, upbringing, teaching process, pedagogical technologies, interacitive methods.

Аннотация: Начальное образование играет важную роль в формировании личности учащегося. На данном этапе учащиеся получают не только начальные знания, но и формируют свои нравственные и социальные качества. Гармоничное сочетание обучения и воспитания способствует всестороннему развитию личности учащегося. В данной статье рассматриваются вопросы взаимосвязи обучения и воспитания в начальном образовании, а также значение современных педагогических методов в образовательном процессе.

Ключевые слова: начальное образование, воспитание, образовательный процесс, педагогические технологии, интерактивные методы, ученик, учитель.



Bugungi kunda ta'lim tizimining jamiyati taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Har bir davlatning rivojlanishi ko'p jihatdan ta'lim tizimining qay darajada samarali tashkil etilganiga bog'liqdir. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichi inson hayotida muhim o'rin egallaydi. Chunki aynan shu davrda o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqish, dunyo qarashi hamda axloqiy fazilatlarini shakillanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularning tug'ri tarbiyalash ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas jarayon bo'lib, ular o'zaro uyg'un holda olib borilgandagina samarali natija beradi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy munosabatlarining rivojlanishi aynan ta'lim va tarbiyaning uyg'un holda tashkil etilishiga bog'liqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh jihatidan juda ta'sirchan bo'ladilar. Ular atrof-muhitdagi voqealarni qabul qiladi va kattalarga taqlid qiladi. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi ham hisoblanadi. O'qituvchining nutqi, xulqi, muomilasi ham o'quvchilarning tarbiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan bilimlar ularning hayotiy tajribasi bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quvchilar o'rganayotgan bilimlarini amaliy hayotda qo'llay olsagina ularning hayotiy tajribasi bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quvchilar o'rganayotgan bilimlarini amaliy hayotda qo'llay olsagina ularning bilimlari mustaxkam bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi dars jarayonida turli pedagogik metodlardan foydalanishi lozim. Boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bolgan qiziqishini oshiradi. Interfaol metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ularning faolligini oshiradi. Masalan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Bumerang", "Rol o'ynash" kabi metodlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishga yordam beradi.

Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari, elektron ta'lim platformalari o'quvchilarning bilimini tez va samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Bunday texnologiyalar yordamida o'quvchilar dars jarayonida ko'proq vizual materillar orqali bilim olladilar.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratishi ham lozim. O'quvchilarda vatanparvarlik, do'stlik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi fazilatlarini shakillantirishi o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Bunday fazilatlar o'quvchilarning kelajakda jamiyatda faol va mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Mustaqil fikrlay oladigan



o'quvchi turli muammolarni tahlil qila oladiva to'g'ri qabul qilish qobilyatiga ega bo'ladi. shu sababli o'qituvchi o'quvchilarga savol berish, munozara tashkil qilish, muammoli vaziyatlar yaratish oqali ularning fikrlash qobilyatini rivojlantirishi zarur. Boshlang'ich ta'lim jarayonida oila va maktab hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ta'lim jarayoniga e'tibor qaratishi, o'qituvchilar bilan doimiy aloqada bo'lishi zarur. Bu esa o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Agar oila va maktab o'rtasida mustahkam hamkorlik bo'lsa, o'quvchilarning tarbiyasi yanada samarali bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchining shaxsiy namunasi ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zining bilim darajasi, madaniyati va muamalasi bilan o'quvchilarga namuna bo'lishi kerak. O'quvchilar ko'pincha o'qituvchining xatti-harakatlarini kuzatib, undan o'rnak oladilar. Shu sababli o'qituvchi o'z faolyatida pedagogik odob-axloq qoidalariga amal qilishi zarur. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Har bir o'quvchining qobilyati va qiziqishi turlicha bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hiobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishi kerak. Bu esa o'quvchilarning bilimlarini yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Kompyuter, interaktiv doska va multimedia vositalari yordamida darslarni yanada samarali tashkil etish mumkin. Bunday texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biridir. O'quvchilarga turli ijodiy topshiriqlar berish orqali ularning tasavvur doirasi kengayadi. Masalan, kichik hikoyalar tuzish, rasmlar asosida voqealar yaratish turli muammoli vazifalarni hal qilish kabi topshiriqlar o'quvchilarning ijodiy fikirlashini rivojlantiradi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish ham muhimdir. O'quvchilarga milliy urf-odatlar, an'analar va madaniyat haqida ma'lumot berish orqali ularda o'z millatiga hurmat tuyg'usi shakillanadi. Bu esa ularning ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish ham muhim hisoblanadi. Turli tadbirlar, tanlovlar, ijodiy uchrashuvlar o'quvchilarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga yordam beradi. Bunday faoliyat o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilad.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1992.
2. Islom Karimov. Yuskak ma'naviyat-yenilma kuch. Toshkent, 2008.



INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation

Vol.4 №4 (2026). April
innovativepublication.uz



3. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent, 2000
4. Olimjon Tolipov, Muborak Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent 2010.
5. Kumush Qosimova. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent 2005.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Ta'lim tug'risidagi qonun. 2020.
7. Pedagogika. Toshkent, 2014.